**Shaharlar geografiyasi yoki geourbanistika asoslari fanidan GPAni aniqlash tartibi.**

$$GPA = \frac{K_1 * U_1}{K_1} = \frac{K_4 * U_3}{4} = \frac{12}{4} = 3\ kredit$$

## XI. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (LIST OF RECOMMENDED LITERATURE)

### Asosiy adabiyotlar


1. Soliyev A., Tashtayeva S., Egamberdiyeva M. Shaharlar geografiyasi.-T.,2018.
2. Michael Pacione. Urban geography: a global perspective. 3-edition.-London, 2009.
3. Lappo G.M. Geografiya gorodov.- M., 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. www.lex.uz
5. " O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida " O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasiqonun hujjatlar to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
6. "2018-2022 yillarda aholi punktlari bosh rejalar bilan ta'minlash, loyixa tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxasislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zR Prezidentining qarori. 2018 y. lex.uz.
7. Ata-Mirzayev O. B., Gentshke V., Murtazaeva R., Saliev A. Istoriko-demograficheskie ocherki urbanizatsii Uzbekistana. – T.: Universitet, 2002. – 125.
8. Ahmedov E.A. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.- T., 2004.
9. Pertsik Ye.N. Geografiya gorodov.(Geourbanistika). -M.1991.
10. Pertsik Ye.N. Geourbanistika.-M., Akademiya, 2009.
11. Pivovarov Yu. A. Rossiya i mirovaya urbanizatsiya / Antropokulturnaya i prostranstvennaya dinamika/. – Nalchik: Poligrafservis, 2007. – 334 s.
12. Soliyev A.S. Problemы rasseleniya i urbanizatsii v respublikax Sredney Azii. -T.: Fan, 1991.
13. Soliyev A.S. Shaharlar geografiyasi. (Ma'ruza matni).-T., 2000.
14. Taylor P., et al., Ed., Global Urban Analysis: A Survey of Cities in Globalization, Earthscan, London, UK, 2010.
15. Erdonov M.N. SHaharlar geografiyasi(uslubiy qo'llanma). – Termiz. 2020 y.
16. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: tarix va hozirgi zamon: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman matireallari.-Toshkent, 2007.


### Internet saytlar:

1. http:// www.un.org/ yesa/ population/ publikations/
2. http:// www. google.com.
3. http:// www. gretestcities com.
4. http:// www. urban.org.ru.
5. www.Ziyo.net.
6. http://lex.uz.

# O'zbekiston Respublikasi
# Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
# Termiz davlat universiteti

«Tasdiqlayman»
Termiz davlat universiteti
o'quv ishlari prorektori
dots. R.To'rayev
"___" ________ 2023 y.

Ro'yxatga olindi________
2023 yil "26" 08

## SNAHARLAR GEOGRAFIYASI VA GEOURBANISTIKA ASOSLARI

***fanidan***

***ISHCHI O'QUV DASTURI***
***(Syllabus)***

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| Ta'lim sohasi: | 530000 - Fizikaga oid fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60530400 - Geografiya |

**Fanga oid ma'lumotlar**

| Fanning malakaviy kodi: | SHGB106 | |
|---|---|---|
| O'quv yili: | 2023/2024 | |
| Semestr: | 3 | |
| Kafedra nomi: | Geografiya | |
| Ajratilgan soatlar: | 180 soat | |
| Ajratilgan kreditlar soni: | 6 | |
| Fan turi: | Majburiy | |
| Professor-o'qituvchi: | Erdanov Muxamadi Nuraliyevich | |
| E-mail / telefon: | erdanovm@mail.ru/ (91)-576-87-72 | |
| Qabul soatlari: | Kafedrada tasdiqlangan reja-grafik asosida | |
| | Soatlar taqsimoti: | |
| | Semestr | |
| | | 3 semestr |
| Umumiy o'quv soati: | | 180 |
| Auditoriya soati | | 90 |
| Ma'ruza | | 44 |
| Amaliy | | 46 |
| Mustaqil ta'lim | | 90 |

Termiz-2023

Syllabus O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2021 yil 16-iyuldagi 311-son buyrug'ining 1-ilovasi "O'zbekiston Davlat Standarti O'zbtkiston uzluksiz ta'limining Davlat Ta'lim Standartlari Oliy ta'limning Davlat Ta'lim Standarti Asosiy qoidalar" mundarijasining 5-§ "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxasissisliklari o'quv rejalari va o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar" 10.2.4. "O'quv dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish qo'yidagi tartibda amalga oshiriladi:" bandi va shu bandning 2-xat boshi talabiga muvofiq ishlab chiqildi

**Tuzuvchi:**

Erdanov M.N. TerDU, Geografiya kafedrasi dotsenti

**Taqrizchilar:**

Allanov Q.A. TerDU, Geografiya kafedrasi dotsenti

Abdunazarov H.M. TerDU, Geografiya kafedrasi dotsenti

Fanning ishchi o'quv dasturi Geografiya kafedrasining 2023 yil 24.06 dagi 21-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:** ____________ **M.Erdonov**

Fanning ishchi o'quv dasturi Tabiiy fanlar fakulteti Kengashining2023 yil 27.06 dagi 11 sonli majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Fakultet Kengashi raisi:** ____________ **A. Sh. Xurramov**

Fanning ishchi o'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv metodik Kengashining 2023 yil 28.08 dagi 01 -sonli majlisida tasdiqlangan.

**O'quv metodik boshqarma boshlig'i:** ____________ **A. Ibragimov**

| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| SHGB106 | | 2023-2023 | 3 | 6 | |
| **Fan/modul turi** | | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| **Majburiy** | | O'zbek | | 6 | |
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari** | 90 | | 90 | **180** |

## I.MODUL TAVSIFI(Description)

Shaharlar geografiyasi yoki geourbanistika asoslari fani iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning alohida tarmog'i bo'lib, oliy o'quv yurtlarining geografiya yo'nalishi talabalari uchun o'qitiladi. Fan shaharlar to'ri va tizimlari rivojlanishining tarixiy-geografik, sotsial, iqtisodiy-geografik, shaharsozlik jihatlarini o'rganishga, urbanizatsiyaning murakkab, zamonaviy global xarakterini ochib berishga, shaharlar va ularning hududiy tizimlari rivojlanishining strategiyasini mazmun va ahamiyatini, shaharlarni joylashtirish, rivojlantirish, loyihalash va boshqarish asoslarini o'rganishga qaratilgan..

## II.FANNING MAZMUNI

Mazkur fanning o'qitilishidan maqsad geografiya mutaxassisligi talabalariga shaharlarning shakllanishi, rivojlanishi va joylashuv qonuniyatlari hamda xususiyatlariga oid nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi - "shahar"tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berish, fanning tadqiqot uslubiyoti, uslublari, asosiy tamoyillari, qonuniyatlarini o'rganish, shaharlarning aholi va ishlab chiqarishni hududiy tashkil Etishdagi o'ziga xos o'rni, mamlakat va rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati haqida nazariy va amaliy bilim berish, fandagi asosiy tushuncha, atama, terminlarning ma'nosini o'rganish, turli mintaqa va hududlarda shaharlar shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga iqtisodiy geografik baho berishni o'rganishdan iborat.

Shaharlar geografiyasi fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- shaharlar geografiyasining tadqiqot ob'ekti va predmeti, asosiy termin, tushunchalari; shaharlarning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahamiyati; shaharlarning tarixiy shakllanishi va genetik tiplari; shahar aglomeratsiyalari, megapolis, konurbastiya *haqida tasavvurga Ega bo'lishi;*
- shaharlar klassifikastiyasi va funkstional tipologiyasini; yirik shaharlar rivojlanishi va urbaniyazastiya jarayonlarini; shaharlarning hududiy tizimi va geoekologik muammolarini; shaharlar geografiyasini o'rganishda ilmiy tadqiqot usullari hamda zamonaviy geografik axborot tizimlarini *bilishi va undan foydalana olishi;*

- shaharlarni tasniflash va turlarga ajratish; urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanish tendenstiyalarini tahlil qilish; shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari va istiqbollarini aniqlash *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

## III. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)

### III.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)

**1-mavzu. Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari fanining ob'ekti va predmeti, uni o'rganishdagi asosiy vazifa va usullar. (2 soat)**

Shaharlar geografiyasining Ijtimoiy va iqtisodiy geografiya fanining alohida tarmog'i sifatida shakllanishi. Uning turli mamlakat va rayonlarda shaharlarning vujudga kelishi, hududiy tarkibi va rivojlanishidagi qonuniyatlarni o'rganuvchi fan Ekanligi; shaharlarning ishlab chiqarish va aholini hududiy tashkil Etilishida tutgan o'rni, fanning ob'ekti, predmeti, vazifalari. Shaharlar geografiyasining boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqasi, o'rganish uslublari. Shaharlarni geografik o'rganish.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 3., 10., 11., 12., ]**

**2-mavzu. Shaharlarning vujudga kelish tarixi. (2 soat)**

Yer yuzidagi ilk sivilizatsiya o'choqlari va qadimgi shaharlar barpo bo'lgan makonlar, ilk shaharlar. Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Hindistonda vujudga kelgan shaharlar, antik dunyo shaharlari va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni. Shaharlar shakllanishining tarixiy bosqichlari. Turli mintaqalarda shaharlarning tarixiy shakllanishi, Evropa, Osiyo (Sharq), Amerika qit'alarida shaharlarni vujudga kelishidagi asosiy xususiyatlar. «Shahar» tushunchasi va asosiy mezonlari, ushbu tushunchaning turli davr va jahon mamlakatlarida bir xil emasligi.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 3., 8., 10., 11., 12., ]**

**3-mavzu. Shahar hosil qiluvchi asosiy omillar. (2 soat)**

Shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillar. Shaharlarning genetik tipologiyasi. Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida geografik o'rinning roli: makro, mezo va mikro geografik o'rin. Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni, uning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy o'zgaruvchanligi, "o'lik shaharlar". Shaharlar geografik o'rnining transport, boshqaruv, iqtisodiy, siyosiy va geostrategik ahamiyati. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaharlar rivojlanishi.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 3., 10., 11., 12., 14., 15.]**

4-mavzu. Shaharlar klassifikatsiyasi (tasnifi). (2 soat)

Shaharlar klassifikatsiyasi: oddiy va murakkab klassifikatsiya; shahar va shaharchalarning 8 bosqichga bo'linishi. BMT klassifikatsiyasi. Shaharlar klassifikatsiyasining ahamiyati va mazmuni. Shaharlar piramidasi. Uning asosida mamlakat shaharlari rivojlanishidagi asosiy muammolarni aniqlash. O'zbekiston Respublikasi shaharlarini katta-kichikligiga qarab tabaqalash, shaharlar ierarxiyasi. Zipfa-Styuart qonuni, shaharlarni rivojlantirishda uning ahamiyati, "millioner shaharlar". Mamlakatlarning "bosh shahri", megapolis haqida tushuncha. Boshqaruv nuqtai nazaridan shaharlarning turlari: respublika, viloyat va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar.

**Adabiyotlar: [ 2., 3., 6., 7., 10., 11., 12., 15., 16., 18. ]**

**5-mavzu. Shaharlarning funksiyalari. (2 soat)**

Shaharlarning funksiyalari, funksional o'xshash jihatlari va farqlari, shaharlarning funksional tiplari va katta-kichikligi o'rtasidagi qonuniy aloqadorlik. Industrial shaharlar. Posindustrial shaharlar. Shaharlar funksiyalarining o'zgarishi.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 3., 6., 7., 10., 11., 12., 15., 16. ]**

**6-mavzu. Shaharlarning funksional tiplari. (2 soat)**

Shaharlarning funksional tiplarga ajratish usullari, yirik ko'p funksiyali shaharlar, keng tarmoqli sanoat markazlari, sanoat, transport, rekreatsiya, ilm-fan va boshqa sohalarga ixtisoslashgan shaharlar. O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo'yicha guruhlarga ajratilishi. Poytaxt shaharlar, ularni tanlash va rivojlantirishga qo'yilgan talablar. Poytaxt shaharlar muammolari. Poytaxt shaharlar geografik o'rnining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va geostrategik ahamiyati. Yirik poytaxt shaharlar rivojlanishini nazorat qilish bo'yicha jahon tajribalari. Global shaharlar va ularni ajratish, tasniflash (S.Sassen, N. Sluka va b. ishlari). Xalqaro ixtisoslashuv-moliyaviy (London, Jeneva, Styurix), iqtisodiy (Nyu-York, Myunxen, Los-Anjeles), siyosiy (Vena, Gaaga, Amsterdam), turizm (Singapur, Kuala-Lumpur) markazlari. Global shaharlarning jahon taraqqiyotida tutgan o'rni va rivojlanish muammolari. Bozor munosabatlariga o'tish davrida shaharlar funksiyalarining o'zgarishi.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 3., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**7-mavzu. Shaharlarning hududiy tizimlari. (2 soat)**

Shaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari. Shahar aglomeratsiyalari vujudga kelishining ikki turi (G.Lappo metodikasi). Aglomeratsiya "yadrosi" va "yo'ldosh shahar"haqida tushuncha. Jahondagi yirik shahar aglomeratsiyalari va ularning shakllanish mexanizmlari. Shaharlarning dinamik rivojlanish modellari (J.Forrester, K.Doksiadis, N.Ladovskiy va b.). Konurbatsiya, megalopolislar va urbanizatsiyalashgan hududlar, zona va rayonlar, ularning vujudga kelish bosqichlari. Jahonning yirik megalopolislari (Tokaydo, BosVash, ChiPits,San-San va b.), ular rivojlanishining ijobiy va salbiy jihatlari, boshqarish va tartibga solish yo'llari.

Adabiyotlar: [ 1., 2., 3., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]

8-mavzu. Urbanizatsiya tushunchasi va uning turlari. (2 soat)

Urbanizatsiyaning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ekanligi, asosiy va yordamchi sxemasi ko'rsatkichlari (V.Pokshishevskiy, B.Garne, E.Perstik va b.larning qarashlari).

Urbanizatsiyaning kelib chiqishi va tarqalishi. Industrial urbanizmdan oldingi vaziyat. Zamonaviy urbanizatsiya.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 3., 6., 7., 10., 11., 12., 15. ]**

**9-mavzu. Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari. (2 soat)**

D.Djibbsning urbanizatsiyani "bosqichli rivojlanish". Evropa mamlakatlaridagi klassik urbanizatsiya va sharqona urbanizatsiya, "real" va "soxta urbanizatsiya" tushunchasi, jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasiga ko'ra guruhlanishi. Urbanizatsiyaning sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va ekologik muammolari. O'zbekistonda urbanizatsiyaning rivojlanish tarixi va bugungi holati, muammolari, uning hududiy xususiyatlari, A.Soliev, O.Ota-Mirzaev, A.Qayumov, Z.Rayimjonov, E.Ahmedov va boshqalarning O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni va shaharlar rivojlanishiga qo'shgan hissalari. Urbanizatsiya va geoekologiya.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**10-mavzu. Shaharsozlik masalalari (2 soat)**

Shaharsozlik va rayon planirovkasi haqida tushuncha. Shaharlarning Bosh rejasi, uni tuzishdagi asosiy vazifa va maqsadlar. Shaharsozlik g'oyalarining rivojlanishi: shahar va shahar aglomeratsiyalarini joylashtirish va rivojlantirish sxemalari ( V.Kristaller, A.Lyosh, P.Izard, X.Xagget, A.Kol, X.Xoyt, P.Polyan va b. modellari), shahar planlari (Katta London, Katta Parij, Tokio, Katta Toshkent va b.)

Shahar va shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi. Hududni funkstional zonalarga, sektorlarga ajratish. Shahar aholisini hududiy tashkil Etish. Shaharda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini joylashtirish."Optimal shahar" tushunchasi. Bozor munosabatlari sharoitida shahar qurilishi masalari.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**11-mavzu. Shaharlarning bosh rejasi. (2 soat)**

Shaharlarning Bosh rejasi , uni tuzishdagi asosiy vazifasi va maqsadlar. Shahar planlari ( Katta London, Katta Parij, Tokio ). O'zbekiston shahar qurilishi masalari. Yirik shaharlarning planlari ( Katta Toshkent, Samarqand va boshqalar ).

Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]

12-mavzu. O'zbekiston shaharlari geografiyasi. (2 soat)

O'zbekistonning turli mintaqalarida shaharlarning vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari. Respublika shaharlarining shakllanishida relef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar. O'zbekiston shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonlarning shaharlar bilan ta'minlanishi. Shahar va shaharchalarning funktsiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o'rni. Viloyat shaharlarini aholi soniga ko'ra tasniflash. Yangi shaharchalar (agroshaharlar), ularning rivojlanish muammolari. O'zbekiston va uning hududlarida urbanizatsiya jarayoni, rivojlanish bosqichlari.

Respublikada shaharlarni hududiy tashkil Etish, rivojlanishini takomillashtirish va boshqarish, unga oid Prezident farmonlari, davlat qarorlari, O'zbekistonda shahar qurilishi masalalari va yirik shaharlarning planlari. O'zbekiston shahar va shaharchalari toponimikasi.Nomlarning kelib chiqish tarixi. Shahar nomlarining o'zarishi va bu boradagi davlat qarorlari.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**13-mavzu. O'zbekiston shahar aglomeratsiyalari. (2 soat)**

O'zbekistonning yirik shahar aglomeratsiyalari. Shahar aglomeratsiyalari - o'ziga xos sotsial, innovastiya, infratuzilma, iqtisodiy, geoekologik va nozogeografik muhit sifatida. O'zbekistonda shaharlar hududiy tizimlarining shakllanish va rivojlanish muammolari. Yirik shahar tizimlarining iqtisodiy, sotsial, ekologik, demografik, transport, shahar qurilishi va boshqa muammolari, ularni hal etish usullari.

O'zbekistonda shahar guruhlari shahar aglomeratsiyalarining shakllanish rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston shahar aglomeratsiyalarining delimitatsiyasi. Shahar aglomeratsiyalarining o'ziga xos sotsial, iqtisodiy, innovatsiya, infratuzilma, geoekologik va nozogeografik muxit ekanligi. O'zbekistonda shaxar aglomeratsiyalarining rivojlanish muommolari.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 3., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**14-mavzu. O'zbkistonda urbanizatsiya muommolari. (2 soat)**

O'zbekiston va uning xudadlarida urbanizatsiya jarayoni, rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari.O'zbekistonda urbanizatsiya muommolari va uni hal etishga oid chora-tadbirlar.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**15-mavzu. O'zbekiston shaharlari tarkibi. (2 soat)**

Iqtisodiy rayon vaviloyatlarning shaharlari bilan ta'minlanishi. Shaharlarning urbanistik va xududiy urbanistik tarkibini. Respublikada shaxarlarni xududiy tashkil etish, rivojlanishini takomillashtirish va boshqarish, unga oid Prezident farmonlari, qarorlari.

Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]

**16-mavzu. Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari. (2 soat)**

Iqtisodiy rayon shahar va shaharchalari tarkibi va tavsifi, shaharlashish darajasi, shakllanish tarixi. Shaharlar vujudga kelishidagi asosiy shart-sharoit va omillar, shaharlarning shakllanishi va rivojlanishida "havza" omili (Chirchiq va Ohangaron havzasi shaharlari), "poytaxtlik" omili. Iqtisodiy rayon shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibi. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlari. Toshkent shahrining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, ilmiy-texnik, innovastion, ishlab chiqarish va demografik salohiyati. Toshkent aglomeratsiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. Angren maxsus industrial zonasining shahar rivojlanishiga ta'siri.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**17-mavzu. Toshkent shahrining shaklanishi va rivojlanish xususiyatlari. (2 soat)**

Toshkent shahrini milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, ilmiy-texnik, innovitsion, ishlab chiqarish vademografik salohiyati. Toshkent aglomeratsiyasining shaklanishi va rivojlanish xususiyatlari, yo'ldosh shaharlari. Sanoati va qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlari. Transport va tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishining asosiy muammolari. O'rta Osiyo davlatlaridagi integratsiya jaryonlarida Tojikistonning roli.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15. ]**

**18-mavzu. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari. (4 soat)**

·Mirzacho'l iqtisodiy rayoni tavsifi, maydoni, aholisi, shahar va shaharchalari. Shaharlar vujudga kelishida cho'lning o'zlashtirilish omili, "eski" va "yangi" shaharlar, "resurs" shaharlari. Rayon shaharlarining rivojlanishida Jizzax maxsus Erkin iqtisodiy zonasining roli. Viloyat va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlarining rivojlanish muammolari va istiqbollari.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15. ]**

**19-mavzu. Farg'ona mintaqasi shaharlari. (2 soat)**

Farg'ona mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o'rni. Shaharlar tarkibi va tavsifi. Tarixiy shakllanish bosqichlari. Shaharlar shakllanishida tog'oldi konussimon deltalarning roli. Rayonning shaharlar bilan ta'minlanish darajasi, shaharlar tasnifi, ixtisoslashuvi. Vodiy shaharlari ierarxiyasi, "yuzminglik shaharlar". Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon shaharlari planlari. Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**20-mavzu. Zarafshon mintaqasi shaharlari. (2 soat)**

Zarafshon iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalar soni, ularning o'zgarishi, tashkil topish vaqti va shart-sharoitlari. Shaharlarning shakllanishida sug'orma dehqonchilik, Buyuk Ipak yo'li, geografik o'rinning ahamiyati. Rayon shaharlarining cho'l va voha sharoitida rivojlanishi. Mintaqa shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibi, shahar va shaharchalarni tiplarga ajratish. Samarqand viloyati shaharlariga ta'rif. Navoiy viloyati shaharlari. Buxoro viloyati shaharlari tarkibi. Viloyat markazlarining boshqaruv roli. Ko'pfunktsiyali va bir funktsiyali shaharlar. Yangi shaharchalarning rivojlanish muammolari.

O'zbekiston va uning xududlarida urbanizatsiya jarayoni, rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari.O'zbekistonda urbanizatsiya muommolari va uni hal etishga oid chora-tadbirlar.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**21-mavzu. Quyi Amudaryo rayoni shaharlari. (2 soat)**

Quyi Amudaryo mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o'rni. Shaharlarning kelib chiqish tarixi, urbanistik tarkibi va tavsifi. Shaharlar shakllanishida irrigastiya tarmoqlarining roli. Rayon shaharlari klassifikastiyasi, shaharlar piramidasi. Rayonda shaharlar zichligi, shaharlar tasnifi, funktsiyalari va funkstional tiplarga ajratish. Quyi Amudaryo Ekologik vaziyatining shaharlar rivojlanishiga ta'siri.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**22-mavzu. Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari. (2 soat)**

Janubiy iqtisodiy rayon shaharlariga umumiy tavsif. Ularning vujudga kelish tarixi, shart-sharoit va omillari. Respublika urbanistik tarkibida tutgan o'rni. Shaharlarning hududiy joylashuvi, shaharlar zichligi. Shaharlarning ixtisoslashuvi. Mintaqaning katta, o'rta, kichik shaharlari, agroshaharlar. Termiz shahri: iqtisodiy, madaniy, ma'muriy, geostrategik ahamiyati. Rayon taraqqiyotida shaharlarning tutgan o'rni va rivojlanish muammolari.

**Adabiyotlar: [ 1., 2., 5., 6., 7., 10., 11., 12., 15.]**

**IV. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha tavsiya, ko'rsatma va topshiriqlar.**

**1-mashg'ulot. Shaharlarning geografik o'rnini tahlil qilish. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. "Shahar" tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berish.
2. Shaharlarning ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishdagi o'ziga xos o'rni, mamlakat va rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganish.
3. Turli mintaqa va hududlarda shaharlar shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga iqtisodiy geografik baho berish.

**2-mashg'ulot. Shaharlarning tarixiy bosqichlariga tavsif berish. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Shaharlar shakllanishiga ta'sir etuvchi tarixiy, tabiiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni aniqlash.

2. Shaharlarning vujudga kelishida tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillar, «shahar» tushunchasi va asosiy mezonlarini o'rganish.

3. Shaharlarning vujudga kelishida geografik o'rinning rolini o'rganish.

**3-mashg'ulot. Shaharlarning genitik tipologiyasini tuzish. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Shahar tushunchasining turli davr va jahon mamlakatlarida bir xil emasligini tahlil qilish.

2. Shaharlarning genetik tipologiyasini tuzish.

**4-mashg'ulot. O'zbekiston shaharlarini tasniflash. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Shaharlar klassifikatsiyasinining ahamiyati va mazmuni o'rganish.
2. O'zbekiston Respublikasi shaharlarini katta-kichikligiga qarab tabaqalash.
3. Turli mamlakatlarda shaharlar klassifikatsiyasini o'rganish.

**5-mashg'ulot. O'zbekiston shaharlari piramidasini tuzish. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. O'zbekiston shaharlari piramidasini tuzish.
2. O'zbekiston Respublikasi shaharlarini katta-kichikligiga qarab tabaqalash .
3. O'zbekiston shaharlarining ma'muriy-hududiy bo'ysunishini ierarxiya ko'rinishida tasvirlash.

**6-mashg'ulot. O'zbekiston va viloyatlar shaharlarining funksional tipologiyasini tuzish. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Shaharlarning funksiyalari, funksional o'xshash jihatlari va farqlarini o'rganish.
2. O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo'yicha guruhlarga ajratilish.
3. Bozor munosabatlariga o'tish davrida shaharlar funksiyalarining o'zgarishini o'rganish.

**7-mashg'ulot. Jahonning yirik shahar aglomeratsiyalarini aniqlash va o'lchamiga ko'ra guruhlash. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Jahonning yirik aglomeratsiyalarini shakllanish omillanini aniqlash va shaharlarni guruhlarga ajratish.

2. Aglomeratsiyalarni shallanishida mamlakatlarning tabiiy –iqtisodiy yoki ilmiy-texnologik manbalarning va zamonaviy usularni o'rnini o'rganish.

**8-mashg'ulot. O'zbekiston shahar aglomeratsiyalari tavsifi. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. O'zbekistonda shaharlar hududiy tizimlarining shakllanish va rivojlanish muammolarini o'rganish.

2. O'zbekistonda shahar guruhlari shahar aglomeratsiyalarining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'rganish.

**9-mashg'ulot. Jahon davlatlari urbanizatsiya darajasini aniqlash va guruhlashtirish. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Jahon davlatlarini urbanizatsiya darajasiga ko'ra guruhlashtirish.
2. Urbanizatsiya darajasini aniqlashni o'rganish.

**10-mashg'ulot. O'zbekiston va viloyatlar urbanizatsiya darajasini tahlil qilish. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. O'zbekistonda urbanizatsiyaning rivojlanish tarixi va bugungi holati, muammolari, uning hududiy xususiyatlari tahlil qilish.
2. O'zbekiston shaharlarini aholi soniga qarab jadval asosida tahlil qilish.
3. O'zbekiston viloyatlari urbanizatsiya darajasini aniqlash va tahlil qilish.

**11-mashg'ulot. O'zbekiston shaharlari tarkibini aniqlash. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. O'zbekistonning tarkibini aniqlashda shahar aglomeratsiyalarining ahamiyatini o'rganish.
2. Toshkent aglomeratsiya haqida yozma matn tayyorlash.

**12-mashg'ulot. O'zbekiston shaharlari hududiy tarkibini aniqlash. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. O'zbekiston iqtisodiy rayonlarining shaharlar bilan ta'minlanishini o'rganish.
2. Iqtisodiy rayonlarning shaharlar bilan ta'minlashdagi muammolarini o'rganish.
3. Respublikada shaharlarni hududiy tashkil etish, takomillashtirish va shahar qurilishi masalalarini o'rganish hamda tahlil qilish.

**13-mashg'ulot. O'zbekiston iqtisodiy rayonlari va viloyatlar zichligini aniqlash. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Shaharlarning zichligini aniqlashga doir masalalar ishlash.
2. O'zbekiston iqtisodiy rayonlari zichligini aniqlash va tahlil qilish.

3. Mustaqillik yillarida viloyatlar zichligining o'zgarib borishini tahlil qilish va uni diagrammad aks ettirish.

**14-mashg'ulot. O'zbekiston shaharlariga iqtisodiy-gaografik tavsif berish. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. O'zbekistonning millioner va juda yirik shaharlari(aholisi 500 mingdan ko'p)ga iqtisodiy-geografik ta'vsif berish.
2. O'zbekistonning yirik shaharlari(aholisi 250 mingdan ko'p)ga iqtisodiy-geografik ta'vsif berish.
3. O'zbekistonning katta shaharlari (aholisi 100 mingdan ko'p)ga iqtisodiy-geografik ta'vsif beris

**15-mashg'ulot. "Optimal shahar" karta-sxemasi ishlash va ma'ruza qilish. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Dunyoning yirik shaharlari karta-sxemasini o'rganish.
2. Ixtiyoriy tanlangan hududda "Optimal shahar" karta-sxemasi ishlash.
3. Ishlangan "Optimal shahar" karta-sxemasi haqida ma'ruza qilish.

**16-mashg'ulot. Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlariga iqtisodiy-geografik ta'rif. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Iqtisodiy rayon shahar va shaharchalari tarkibi va tavsifi, shaharlashish darajasi, shakllanish tarixi. Shaharlar vujudga kelishidagi asosiy shart-sharoit va omillar, shaharlarning shakllanishi va rivojlanishida "havza" omili (Chirchiq va Ohangaron havzasi shaharlari), "poytaxtlik" omili. Iqtisodiy rayon shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibini o'rganish.
2. Toshkent shahrining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, ilmiy-texnik, innovastion, ishlab chiqarish va demografik salohiyatini tahlil qilish.
3. Angren maxsus industrial zonasining shahar rivojlanishiga ta'siri.

**17 -mashg'ulot. Farg'ona mintaqasi shaharlari rivojlanishini taqqoslash. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Farg'ona mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o'rnini o'rganish.
2. Shaharlar shakllanishida tog'oldi konussimon deltalarning rolini o'rganish.
3. Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi ishlab chiqarish va demografik salohiyatini tahlil qilish.

**18-mashg'ulot. Zarafshon mintaqasi shaharlari. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Zarafshon iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalar soni, ularning o'zgarishi, tashkil topish vaqti va shart-sharoitlarini o'rganish.
2. Shaharlarning shakllanishida sug'orma dehqonchilik, Buyuk Ipak yo'li, geografik o'rinning ahamiyatini o'rganish.
3. Mintaqa shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibi, shahar va shaharchalarni tiplarga ajratish.

**19-mashg'ulot. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Shaharlar vujudga kelishida cho'lning o'zlashtirilish omili, "eski" va "yangi" shaharlar, "resurs" shaharlarini o'rganish.
2. Rayon shaharlarining rivojlanishida Jizzax maxsus erkin iqtisodiy zonasining roli.
3. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlarining rivojlanish muammolari va istiqbollari.

**20-mashg'ulot. Quyi Amudaryo rayoni shaharlari. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Shaharlarning kelib chiqish tarixi, urbanistik tarkibi va tavsifi. Shaharlar shakllanishida irrigastiya tarmoqlarining roli.
2. Rayonda shaharlarni zichligi va funkstional tiplari bo'yicha guruhlarga ajratish.
3. Quyi Amudaryo Ekologik vaziyatining shaharlar rivojlanishiga ta'sirini o'rganish va baholash.

**21-mashg'ulot. Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari. (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1. Janubiy iqtisodiy rayon shaharlariga umumiy tavsif va Respublika urbanistik tarkibida tutgan o'rnini o'rganish.
2. Termiz shahri: iqtisodiy, madaniy, ma'muriy, geostrategik ahamiyati.
3. Rayon taraqqiyotida shaharlarning tutgan o'rni va rivojlanish muammolari.

**22-mashg'ulot.jaxon shaxarlari asosiy muommalari (2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotda quyidagi topshiriqlar bajariladi:

1.xozirgi zamon shaxarlarining shakllanishi
2.shaxarlarni mintaqaviy xususiyatlari
3.shaxarlaning rivojlanish va ularning muommlari
4. shaxarlaning ekologik muommolari

**23-mashg'ulot SHaxarlar rivojlanishiga qiyosiy tarif berish**

*1.Yirik rivojlangan shaxarlar*
*2.urtacha rivojlangan shaxarlar*
*3.bir funksyali shaxarlar*

## V. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR (Independent study and independent work)

Mustaqil ta'lim ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o'z ichiga oladi.

1. Shahar tashkil qiluvchi va shaharga xizmat kiluvchi omillar
2. Shaharlarning vujudga kelishida geografik urinning roli
3. Shaharlarning genetik tipologiyasi
4. Shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan shugullanadigan olimlarning ilmiy ishlari
5. Shaharlarning funksiyalari va tiplari
6. O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari
7. Shahar klassifikatsiyasi va shaharlar piramidasi
8. O'zbekiston yirik, katta, urta va kichik shaharlari
9. N N Baranskiyning shaharlar rivojlanishiga kushgan hissasi
10. Shaharlarning xududiy tarkibi va olimlarning qilgan ishlari
11. Shaharlarni joylashtirish sxemasi
12. Shaharlarning hududiy tizimlari
13. Jahon urbanizatsiyasi va uning mintaqaviy xususiyatlari
14. O'zbekistonning yangi shaharchalari va ularning rivojlanish muammolari
15. O'zbek olimlarining shaharlar rivojlanishi muammolariga qo'shgan hissasi
16. Shaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari.
17. Jahondagi yirik shahar aglomeratsiyalari va ularning shakllanish mexanizmlari.
18. Megalopolislar va urbanizatsiyalashgan hududlar, zona va rayonlar, ularning vujudga kelish bosqichlari.
19. Jahonning yirik megalopolislari, ular rivojlanishining ijobiy va salbiy jihatlari, boshqarish va tartibga solish yo'llari.
20. O'zbekistonning yirik shahar aglomeratsiyalari. Toshkent aglomeratsiyasi.
21. O'zbekistonda shaharlar hududiy tizimlarining shakllanish va rivojlanish muammolari.
22. Yirik shahar tizimlarining iqtisodiy, sotsial, yekologik, demografik, transport, shahar qurilishi va boshqa muammolari, ularni hal etish usullari.
23. Urbanizasiya sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va yekologik muammolari
24. Yevropa mamlakatlarini urbanizatsiya darajasiga ko'ra guruhlanishi
25. Poytaxt shaharlar, ularni tanlash va rivojlantirishga qo'yilgan talablar.
26. Poytaxt shaharlar muammolari.
27. Poytaxt shaharlar geografik o'rnining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va geostrategik ahamiyati.
28. O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo'yicha guruhlarga ajratilishi
29. Shaharlarning funksional tiplarga ajratish usullari, yirik ko'p funksiyali shaharlar
30. Bozor munosabatlariga o'tish davrida shaharlar funksiyalarining o'zgarishi

**Izoh - Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari hamda ularning bajarilish shakllari, tegishli maksimal ball va topshirish muddatlari modul – kredit bo'yicha taqsimot jadvalida berilgan.**

### Modul- kredit bo'yicha mavzularning taqsimoti

| Modul N. | Mavzu N. | Mavzular | Dars turi | Soati | Ball | Mustaqil ta'lim va mustaqil ish | Bajarish shakli | Vaqt | Ball | Muddati. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| I | 1 | Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari fanining ob'ekti va predmeti, uni o'rganishdagi asosiy vazifa va usullar. | M | 2 | | Shahar tashkil qiluvchi va shaharga xizmat qiluvchi omillar | Slayd | 3 | 0,4 | 10.09.2022 |
| | 2 | Shaharlarning geografik o'rnini tahlil qilish | A | 2 | 0,33 | Shaharlarning vujudga kelishida geografik urinning roli | Konspekt | 3 | 0,4 | 17.09.2022 |
| | 3 | Shaharlarning vujudga kelish tarixi | M | 2 | | Shaharlarning genetik tipologiyasi | Slayd | 3 | 0,4 | 17.09.2022 |
| | 4 | Shaharlar tarixiy bosqichlariga tavsif berish. | A | 2 | 0,33 | | | | | |
| | 5 | Shahar hosil qiluvchi asosiy omillar | M | 2 | | Shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan shugullanadigan olimlarning ilmiy ishlari | Konspekt | 3 | 0,4 | 24.10.2022 |
| | 6 | Shaharlarning genitik tipologiyasini tuzish | A | 2 | 0,33 | Shaharlarning funksiyalari va tiplari | Konspekt | 3 | 0,4 | 0.8.10.2022 |
| | 7 | Shaharlar klassifikatsiyasi (tasnifi) | M | 2 | | | | | | |
| | 8 | O'zbekiston shaharlarini tasniflash. | A | 2 | 0,33 | O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari | Slayd | 3 | 0,4 | 15.10.2022 |
| | 9 | Shaharlarning funksiyalari | M | 2 | | | | | | |
| | 10 | O'zbekiston shaharlari piramidasini tuzish. | A | 2 | 0,33 | Shahar klassifikatsiyasi va shaharlar piramidasi | Slayd | 3 | 0,4 | |
| | 11 | Shaharlarningfunktsional tiplari. | M | 2 | | | | | | |
| | 12 | O'zbekiston va viloyatlar shaharlarini funktsional tipologiyasini tuzish. | A | 2 | 0,33 | O'zbekiston yirik, katta, o'rta va kichik shaharlari | Konspekt | 3 | 0,4 | |
| | 13 | Shaharlarning hududiy tizimlari | M | 2 | | N N Baranskiyning shaharlar rivojlanishiga kushgan hissasi | Slayd | 3 | 0,4 | |
| | 14 | Jahonning yirik shahar aglomeratsiyalarini aniqlash va o'lchamiga ko'ra guruhlash. | A | 2 | 0,33 | | | | | |
| | 15 | Urbanizatsiya tushunchasi va uning turlari. | M | 2 | | Shaharlarning xududiy tarkibi va olimlarning qilgan ishlari | Konspekt | 3 | 0,4 | |
| | 16 | O'zbekiston shahar aglomeratsiyalari tavsif. | A | 2 | 0,33 | | | | | |
| | 17 | Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari. | M | 2 | | Shaharlarni joylashtirish sxemasi | Konspekt | 3 | 0,3 | |
| | 18 | Jahon davlatlari urbanizatsiya darajasini aniqlash va | A | 2 | 0,33 | Shaharlarning hududiy | Slayd | 3 | 0,3 | |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | guruhlashtirish. | | | | tizimlari | | | | |
| | 19 | Shaharsozlik masalalari | M | 2 | | | | | | |
| | 20 | O'zbekiston va viloyatlar urbanizatsiya darajasini tahlil qilish. | A | 2 | 0,33 | Jahon urbanizatsiyasi va uning mintaqaviy xususiyatlari | Slayd | 3 | 0,3 | |
| | 21 | Shaharlarning bosh rejasi. | M | 2 | | O'zbekistonning yangi shaharchalari va ularning rivojlanish muammolari | Konspekt | 3 | 0,3 | |
| | 22 | "Optimal shahar" karta-sxemasi ishlash. | A | 2 | 0,33 | | | | | |
| | 23 | "Optimal shahar" karta-sxemasi ishlash va ma'ruza qilish. | A | 2 | 0,37 | O'zbek olimlarining shaharlar rivojlanishi muammolariga qo'shgan hissasi | Slayd | 3 | 0,3 | |
| | | | M/t | | | **I-Modul tahlili** | Og'zaki | 2 | 0,5 | 23.10.2022 |
| | | Jami: | | 46 | 4,0 | | | 45 | 6,0 | |
| | | Oraliq nazorat | | 46 | 6,0 | | Test | | 9,0 | |

## Modul- kredit bo'yicha mavzularning taqsimoti

| Modul N. | Mavzu N. | Mavzular | Dars turi | Soati | Ball | Mustaqil ta'lim va mustaqil ish | Bajarish shakli | Vaqt | Ball | Muddati |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| II | 1 | Shaharlarning Bosh rejasi. | M | 2 | | Shaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari. | Slayd | 3 | 0,4 | |
| | 2 | O'zbekiston shaharlari tarkibini aniqlash. | A | 2 | 0,36 | | | | | |
| | 3 | O'zbekiston shaharlari geografiyasi | M | 2 | | Jahondagi yirik shahar aglomeratsiyalari va ularning shakllanish mexanizmlari. | Konspekt | 3 | 0,4 | |
| | 4 | O'zbekiston shaharlari hududiy tarkibini aniqlash. | A | 2 | 0,36 | | | | | |
| | 5 | O'zbekiston shahar aglomeratsiyalari. | M | 2 | | Megalopolislar va urbanizatsiyalashgan hududlar, zona va rayonlar, ularning vujudga kelish bosqichlari. | Slayd | 3 | 0,4 | |
| | 6 | O'zbekiston iqtisodiy rayonlari va viloyatlar shaharlar zichligini aniqlash | A | 2 | 0,36 | | | | | |
| | 7 | O'zbekiston shaharlari tarkibi | M | 2 | | Jahonning yirik megalopolislari, ular rivojlanishining ijobiy va salbiy jihatlari, boshqarish va tartibga solish yo'llari. | Slayd | 3 | 0,4 | |
| | 8 | O'zbekiston shaharlariga iqtisodiy-gaografik tavsif berish. | A | 2 | 0,36 | O'zbekistonning yirik shahar aglomeratsiyalari. Toshkent aglomeratsiyasi. | Slayd | 3 | 0,4 | |
| | 9 | Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari | M | 2 | | | | | | |
| | 10 | Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlariga iqtisodiy geografik tarif. | A | 2 | 0,36 | O'zbekistonda shaharlar hududiy tizimlarining shakllanish va rivojlanish muammolari. | Konspekt | 3 | 0,4 | |
| | 11 | Toshkent shahrining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari | M | 2 | | | | | | |
| | 12 | Farg'ona mintaqasi shaharlari rivojlanishini taqqoslash. | A | 2 | 0,36 | Yirik shahar tizimlarining iqtisodiy, sotsial, yekologik, demografik, transport, shahar qurilishi va boshqa muammolari, ularni hal etish usullari. | Slayd | 3 | 0,4 | |
| | 13 | Farg'ona mintaqasi shaharlari | M | 2 | | Urbanizasiya sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va yekologik muammolari | Konspekt | 3 | 0,4 | |
| | 14 | Zarafshon mintaqasi shaharlari. | A | 2 | 0,36 | Yevropa mamlakatlarini urbanizatsiya darajasiga ko'ra guruhlanishi | Slayd | 3 | 0,4 | |
| | 15 | Mirzacho'l iqtisodiy shaharlari | M | 2 | | Poytaxt shaharlar, ularni tanlash va rivojlantirishga qo'yilgan talablar. | Konspekt | 3 | 0,4 | |
| | 16 | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari. | A | 2 | 0,36 | Poytaxt shaharlar muammolari. | Konspekt | 3 | 0,3 | |
| | 17 | Zarafshon mintaqasi shaharlari | M | 2 | | Poytaxt shaharlar geografik o'rnining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va geostrategik ahamiyati. | Slayd | 3 | 0,3 | |
| | 18 | Quyi Amudaryo rayoni shaharlari. | A | 2 | 0,36 | O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo'yicha guruhlarga ajratilishi | Konspekt | 3 | 0,3 | |
| | 19 | Quyi Amudaryo rayoni shaharlari | M | 2 | | Shaharlarning funksional tiplarga ajratish usullari, yirik ko'p funksiyali shaharlar | Slayd | 3 | 0,3 | |
| | 20 | Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari. | A | 2 | 0,36 | | | | | |
| | 21 | Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari | M | 2 | | Bozor munosabatlariga o'tish davrida shaharlar funksiyalarining o'zgarishi | Konspekt | 3 | 0,3 | |
| | 22 | Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari. | A | 2 | 0,4 | | | | | |
| | | | M/t | | | **II - Modulni xulosalash** | Og'zaki | 2 | 0,5 | 22.12.2022 |
| | | Jami: | | 44 | 4,0 | | | 45 | 6,0 | |
| | | Oraliq nazorat | | 44 | 6,0 | | Og'zaki | | 9,0 | |
| 2 ta | | Hammasi: | | 90 | 8,0 | | | 90 | 12,0 | |

## VI. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)

Shaharlar geografiyasi yoki geourbanistika iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning alohida tarmog'i bo'lib, oliy o'quv yurtlarining geografiya yo'nalishi talabalari uchun o'qitiladi. Fan shaharlar to'ri va tizimlari rivojlanishining tarixiy-geografik, sotsial, iqtisodiy-geografik, shaharsozlik jihatlarini o'rganishga, urbanizatsiyaning murakkab, zamonaviy global xarakterini ochib berishga, shaharlar va ularning hududiy tizimlari rivojlanishining strategiyasini mazmun va ahamiyatini, shaharlarni joylashtirish, rivojlantirish, loyihalash va boshqarish asoslarini o'rganishga qaratilgan..

## VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari( Educational technologies and): methods:

ma'ruzalar; kompyuter texnologiyasi asosida slaydlar namoyishi.
amaliy mashg'ulotlar berilgan topshiriqlar asosida olib bajariladi.;
atlas va yozuvsiz xarita.;
interfaol keys-stadilar;
taqdimotlar qilish;

## VIII. Kreditlarni olish uchun talablar(Requirements for obtaining loans):

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish.

## IX. Talabalar bilimini kredit-baholash tizimi asosida nazorat qilish jadvali va baholash mezonlari(Assessments)

Jahon geografiyasi faniga ta'lim yo'nalishida 46 soat ma'ruza, 44 soat amaliy mashg’ulot va 90 soat mustaqil ta'lim ajratilgan. Universitet nizomi bo'yicha bu 180 soat yuklama hajmiga 6 kredit beriladi. Hemis dasturidagi kredit baholash tizimidagi 100 bal, o’zlashtirish chegarasi esa 60 foizdir. Joriy va oraliq nazoratida talaba jami 50 ball to'plashi mumkin. Talaba yakuniy nazoratda esa 50 ball to'playdi.

**JN mezoni:**

**JN**: Talaba amaliy mashg’ulot mavzu rejasiga tayyorlanib muhokamada qatnashsa, har bir mavzu uchun **0,53** ball berib boriladi, jami **8** ball to'playdi. **(23** ta mavzu***0,53** ball=**12,19** ball, kreativ fikri bo’lsa **0,05** ball beriladi). **1-15** mustaqil ish topshiriqlarining har biriga esa **0,8** baldan beriladi, jami **12** ball to'playdi. (**15ta** mustaqil ish***0,8** ball=**12** ball). Talaba TMI topshiriqlarining **1-15** mavzularini **konespekt** shaklida taqdim etib boradi. Har bir amaliy mashg’ulotida bitta seminar va bitta mustaqil ish mavzusini konespektlashtirish lozim. Keyingi mashgulotda o’tilgan seminar va mustaqil ish mavzusi so’ralmaydi hamda ball berilmaydi. Har bir seminar mashgulotidagi talabaning faoliyati **1,33** ballni tashkil qiladi. Demak,**15*1,33=19,95** Kreativ fikri uchun 0,05 ball jami **20ball.**

**JN ballar(20ball) konvertasiyasi**

| baho | ball | o’zlashtirish |
|---|---|---|
| “5” | 18-20 | 90-100% |
| “4” | 14-17 | 70-89,9% |
| **“3”** | **12-13** | **60-69,9%** |
| “2” | 11 | 0-59,9% |

**ON mezoni (30ball)**

**ON**: Oralq nazorati ma’ruza mashg'uloti tugagandan so’ng o’tkaziladi. Oraliq nazoratida talabaga og’zaki yoki test savollari asosida 12 ball olishi mumkin. ON mustaqil ishi uchun modul jadvali asosida topshiriqlarini berilgan muddatda topshiradi. **Belgilangan muddatida taqdim qilinmagan mustaqil ishlar qabul qilinmaydi.** Modulda belgilangan mustaqil ta’lim va mustaqil ish uchun talaba **18 ball** to'playdi. Talaba umumiy **30 ball** to'playdi.

ON ballar konvertasiyasi.

| baho | ball | o’zlashtirish |
|---|---|---|
| “5” | 27-30 | 90-100% |
| “4” | 21-26 | 70-89,9% |
| “3” | 18-20 | 60-69,9% |
| “2” | 17 | 0-59,9% |

**YaN mezoni(50ball)**

**YaN:** Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkazilsa, talabaga beshta savoldan iborat variantlar taqdim etiladi. Ularning uchtasi mustaqil ta’limlarga tegishli savollar bo’ladi. Har bir yozma savollarga to’liq yozilgan javobi uchun 10 ball beriladi. Jami 50 ball).

**YAN ballr konvertasiyasi**

| baho | ball | o’zlashtirish |
|---|---|---|
| “5”baho | 45-50 | 90-100% |
| “4”baho | 35-44 | 70-89,9% |
| **“3”baho** | **30-34** | **60-69,9%** |
| “2”baho | 29 | 0-59,9% |

**1-Izoh:** O’ROO’MTVning 2018 yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrugi (OTM talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’grisidagi nizom) **1-jadvali** (baholashni “5” baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o’tkazish jadvali) **2- jadval** (Oliy ta’lim talabalar o’zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash jadvali **O’zbekiston tizimi**) asosan konvertasiya qilinadi.

**2-izoh**: VMning 2020 yil 31 dekabrdagi 824-sonli (OTM ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bogliq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to’grisida) qarori **1-ilovasi** (OTM o’quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to’grisida nizom) ning 1-bob 1-4 bandi, 4-bob 11-14 bandi, 6-bob 29-30-31 bandi,8-bob 41 bandiga muvofiq kredit beriladi.

**Talabalar o‘zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash JADVALI**

| “5”baholik tizimi | Yevropa kredit transfer tizimi (ESTS-Europen Credit Transfer System) | “100” ballik shkala (%) |
|---|---|---|
| “5”(a’lo) | “A” | 90 — 100 |
| “4”(yaxshi) | “B” | 70 — 89,9 |
| | “C” | |
| “3”(qoniqarli) | “D” | 60 — 69,9 |
| | “E” | |
| “2”(qoniqarsiz) | “FX” | 0 — 59,9 |
| | “F” | |